

## ABU ALI IBN SINONING TIBBIYOT SOHASIDAGI XIZMATLARI VA ZAMONAVIY TIBBIYOT

Bekchonova Zaynab Matkarimovna

“Ichan-Qal’ a” davlat muzey-qo‘riqxonasi “Allomalar” bo‘limi mudiri

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatini dunyo madaniyati tamadduniga aylantirgan Abu Ali ibn Sino xayot yo‘li va tibbiyot sohasidagi qilgan ishlari va zamonaviy tibbiyotgan qo‘shgan hissasi to‘g‘risida ma’lumot berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Abu Ali ibn Sino, «Avitsenna», Abu Mansur al Hasan ibn Nuh al Qumriy, Nuh II ibn Mansur Somoni, «Risola-yi judiya», Afshona, Balx, Buxoro, Xarmaysanni, Abu Salah al-Masihiy.,

## ABU ALI IBN SINA’S MEDICAL SERVICES AND MODERN MEDICINE

### ABSTRACT

This article provides information about the way of life of Abu Ali ibn Sina, who transformed the culture of the peoples of Central Asia into the world culture, his work in the field of medicine and his contribution to modern medicine.

**Keywords:** Abu Ali ibn Sino, «Avitsenna», Abu Mansur al Hasan ibn Nuh al Qumriy, Nuh II ibn Mansur Somoni, «Risola-yi judiya», Afshona, Balx, Buxoro, Xarmaysanni, Abu Salah al-Masihiy.,

### KIRISH

“Bu qutlug‘ diyorda o‘tmishda 400 ga yaqin madrasa, jumladan, 33 ta oliy madrasa, ya’ni, oliy o‘quv yurti faoliyat yuritgani bugun ham odamni hayratga soladi.

Buxoro – Imom Buxoriydek buyuk hadisshunos olimlar, Muhammad Narshaxiydek ulug‘ tarixchilar, Ibn Sinodek tibbiyot ilmining piri bo‘lgan tengsiz allomalar, qadri baland insonlar yurti. Buxoro – “yetti pir” nomi bilan ma’lum va mashhur bo‘lgan aziz-avliyolar xoki poklari yotgan muqaddas zamindir.[1]

Abu Ali ibn Sino (to‘liq ismi: Abū ‘Alī al-Husayn ibn ‘Abd Allāh ibn Sīnā al-Balkhī)[2] — o‘rta osiyolik buyuk qomusiy olim Buxoroning Afshona qishlog‘ida, 980 yilning safar oyida, amaldor oilasida tug‘iladi. Bizning vaqtimizgacha yetib kelgan o‘zi haqidagi tarjimai xolida yozishicha, “Otam Balxdan bo‘lgan va u yerdan Buxoroga somoniylardan Nuh ibn Mansur hukmronligi davrida keladi va u yerda o‘z ishini devonxonadan boshlaydi. Uning lavozimi - Buxoro yaqinidagi tuman markazi

bo‘lmish Xarmaysanni boshqarish bo‘lgan. Shu yerlarga yaqin qishloqdagi Afshonalik qizni, ya’ni mening bo‘lajak onam Sitora - yulduzni xotinlikka oladi. U yerda avval men, keyin mening akam dunyoga keladi.”

Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatini dunyo madaniyati tamadduniga aylantirgan Abu Ali ibn Sino Yevropada «Avitsenna» nomi bilan mashhurlikka erishgan. 986 yilda Ibn Sino oilasi Buxoroga ko‘chib keladi va shu vaqtdan boshlab yosh Husayn boshlang‘ich ma’lumot olishga, ilm-fanni o‘rganishga kirishadi. Tabibning yoshligi, yigitlik chog‘lari Somoniylar hukmronligining so‘nggi yillari, Nuh II ibn Mansur Somoniy hukmronligi davriga (976-997) to‘g‘ri keladi. Ibn Sino 10 yoshidayoq Qur’onni yod olib, 13 yoshlaridan boshlang‘ich matematika, mantiq, fiqh, falsafa ilmlari bilan shug‘ullana boshlaydi.

Ibn Sinoning tib ilmida yuksak mahoratga erishishida Buxorolik boshqa bir tabib Abu Mansur al Hasan ibn Nuh al Qumriyning xizmati katta bo‘ldi. Ibn Sino undan tabobat ta’limini olib, bu ilmning ko‘p sirlarini o‘rgangan. Qumriy bu davrda ancha keksayib qolgan bo‘lib, 999-yilda vafot etdi.[3] 16-17 yoshidayoq Ibn Sino mashhur tabib — hakim bo‘lib taniladi.

Ibn Sino 17 yoshdayoq, Buxoro xalqi orasida mohir tabib sifatida tanildi. O‘sha kezlarda hukmdor Nuh ibn Mansur betob bo‘lib, saroy tabiblari uni davolashdan ojiz edilar. Dovrug‘i butun shaharga yoyilgan yosh tabibni amirni davolash uchun saroyga taklif qiladilar. Uning muolajasidan bemor tezda sog‘ayib, oyoqqa turadi. Evaziga Ibn Sino saroy kutubxonasidan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Somoniylarning kutubxonasi o‘sha davrda butun O‘rta va Yaqin Sharqdagi eng katta va boy kutubxonalaridan sanalardi. Ibn Sino bir necha yil davomida shu kutubxonada kechayu kunduz mutolaa bilan mashg‘ul bo‘lib, o‘z davrining eng o‘qimishli, bilim doirasi keng kishilaridan biriga aylandi va shu paytdan boshlab o‘rta asr falsafasini mustaqil o‘rganishga kirishdi.[4]

Jahon miqyosidagi umumbashariy muammolardan biri bo‘lgan salomatlik hamda inson kamoloti bugugi kunda har kundagiga qaraganda yanada muhimroq, yanada ahamiyatli umumbashariy muammolar orasidagi birinchi hamda eng muhim muammo ekanligi hech kimga sir emas. Dunyo ahli aholisini qamrab olgan koronavirusning dahshatli oqibatlarini har bir inson o‘z ko‘zlarini bilan ko‘rdi.

Haqiqatdan ham jamiyat uchun tinchlik va sog‘liqdan muhimroq narsa bo‘lmas ekan. “...tinchlik va sog‘liq – bu har bir inson, butun aholimiz uchun hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydigan buyuk ne’matdir. Faqat sog‘lom inson va sog‘lom xalq mislsiz ishlarga qodirligini hammamiz yaxshi anglaymiz.” Sog‘lom inson o‘z mamlakati uchun ezgu ishlarga qodir. Buxorolik alloma Ibn Sino o‘zining qisqa, ammo g‘oyatda mahsulli umrida oltmishga yaqin tibbiyotga oid asar yozdi. Alloma o‘z hayotini butun insoniyatni sog‘lig‘ini muhofaza qilishga bag‘ishladi, desak, aslo mubolag‘a qilmagan

bo‘lamiz. “Sog‘liqni saqlash ilmi”, ”Sog‘lom turmush tarzi”, ”Sog‘lom avlod”, ”Ruhiy salomatlik” , ”Sog‘lom tabiiy muhit” konsepsiyalarini Ibn Sinoning tib asarlaridir desak, adolatli bo‘ladi.

Zamonaviy tibbiyot taraqqiyotida buyuk ajdodlarimizning ilmiy merosi alohida ahamiyatga ega. Buyuk vatandoshimiz Abu Ali ibn Sino ana shunday ulug‘ zotlardan biri hisoblanadi.

Ibn Sino tabobat bilan juda erta qiziqqan va bu soha uning qiziqishlarining katta qismini egallay boshlaydi. Xali 12 yoshga to‘lmasidanoq, Ibn Sino o‘sha vaqtarning faylasufi va tabibi Abu Salah al-Masihiyning maslahatiga ko‘ra uning ta’limotini egalladi. “So‘ngra men tabiblikka ixlos qo‘yib, tabiblik bilan bog‘liq kitoblarni o‘qiy boshladim - deb yozadi tarjimai xolda.

Ilmiy-tadqiqot ishlarini 16 yoshida boshlagan bu ulug‘ zot tibbiyot, falsafa, mantiq, kimyo, fizika, astronomiya, matematika, musiqa, adabiyot va tilshunoslik sohalariga oid 450 dan ortiq asar yaratgan. Ularning 242 tasi bizgacha yetib kelgan, – deydi Ibn Sino jamoat fondi boshqaruvi raisi Sh.Zokirxo‘jayev.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Jahon ilm-fani rivojiga muhim hissa bo‘lib qo‘shilgan bu durdona asarlar hamon o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Abu Ali ibn Sino o‘zining “Tib qonunlari” asarida tibbiyot taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlarini belgilab bergen. Ushbu asarda buyuk olim amaliy tibbiyot va farmakologiya sohalarining eng muhim usullariga asos solgan.

### **Ibn Inoning asosiy meditsina asarları**

“Tibbiyot fani qonuni” («Kitab al-Kanun fi-t-tibb») - ensiklopedik xarakterdagи asar bo‘lib, unda qadimgi davr mediklarining ko‘rsatmalari arab meditsinasining yutuqlari bilan o‘zaro qayta ishlangan. “Qonun”da Ibn Sino kasalliklar allaqanday mayda bo‘laklar oqibatida paydo bo‘lishini ko‘rsatgan. U birinchi bo‘lib chechakning yuqumligiga e’tibor qaratgan, vabo va o‘latning farqini aniqlagan, moxo‘v kasalligining boshqalardan farqini ko‘rsatib, unga izoh bergen va boshqa bir qator kasalliklarni o‘rganib chiqqan. “Tibbiyot fani qonuni”ning lotin tiliga o‘girilgan ko‘plab tarjimalari mavjud. “Qonun” besh qismidan iborat bo‘lib, ikkisi dori vositalari va dorivorlarga hamda ularning tayyorlanish ta’rifiga bag‘ishlangan. Kitobda keltirilgan 2600 dori vositalaridan 1400 tasining kelib chiqishi o‘simlik ko‘rinishidadir.

“Dori vositalari” («Al-Adviyat al kalbiya») — Xamadonga birinchi borishi vaqtida yozgan. Mazkur asarda pnevma hosil bo‘lganda va namoyon bo‘lganda yurak faoliyati, xususan, yurak kasalligi va davosi haqida bataysil yoritib berilgan.

“Xatolarni to‘g‘irlash va ogohlantirish orqali turli usullarda olib tashlash” («Daf’ al-mazorr al kulliya an al-abdon al insoniya bi-tadorik anvo‘ xato an-tadbir»).

“Sharobning foydasi va zarari haqida” («Siyosat al-badan va fazoil ash-sharob va manofi’ix va mazorix») — Ibn Sinoning eng qisqa risolasi.

“Tabobat haqida doston” («Urdjusa fit-tib»).

“Tomir urushi haqida risola” («Risolayi nabziya»).

“Sayohatchilar uchun tadbirlar” («Fi tadbir al-musofirin»).

“Shahvoni kuch haqida risola” («Risola fil-l-box») — kasallik, uni oldini olish va shahvat buzulishlarini davolash ifodalangan.

“Sirka-asal haqida risola” («Risola fi-s-sikandjubin») — turli tarkibga ega sirka va asalni tayyorlash va kasalliklarda iste’moli ta’riflangan.

“Sachratqi haqida risola” («Risola fil-xindabo»).

“Qon olishda qon tomirlar” («Risola fil-uruk al-mafsuda»).

«Risola-yi judiya» — quloq, oshqozon, tish kasalliklari ta’rifi keltirilgan.

Bundan tashqari, unda gigiyena muammolari keltirilgan. Ayrim tadqiqotchilar Avitsennaning muallifligiga shubha qilishadi.

Ibn Sino o‘z asarlarida jismoniy mashqlarining sog‘lomlashtiruvchi va davolovchi tajribadagi o‘rni va roli haqida yozadi. Jismoniy mashqlarga to‘xtovsiz, chuqur nafas olishga olib keluvchi erkin harakatlar, deya ta’rif bergen.

Agar inson mo‘tadil va o‘z vaqtida jismoniy mashqlar bilan shug‘ullansa va tartibga rioya qilsa, u davoga ham, dorilarga ham muhtoj bo‘lmaydi, deya tasdiqlagan. Mashqlarni to‘xtatar ekan, u so‘nadi. Jismoniy mashqlar mushaklarni, bo‘g‘imlarni, asabni mustahkam qiladi. Shuningdek, u mashqlarni bajarishda yoshni ham inobatga olishni maslahat bergen. Uqalash, sovuq va issiq suvda chiniqish kabi muolajalarda to‘xtalgan.

## XULOSA

Hozirgi zamon ilm fanida ko‘proq buyuk tabib, tibbiyot ilmining sultonini sifatida tanishtiriladi. Lekin tarixiy manbalar va o‘rta asr musulmon sharqi ilm faniga doir asarlar bilan tanishsak, Ibn Sinoning faoliyati va ilmiy ijodi qamrovi ancha keng ekanini ko‘ramiz. Ibn Sino o‘z davri olimlarining aksariyatiga tegishli bo‘lgan sifat – qomusiy alloma bo‘lgan. Ya’ni, o‘z davrida ma’lum va ommalashgan bo‘lgan barcha fanlarni o‘zlashtirgan va ularning barchasi bilan bir vaqtida shug‘ullana olgan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Prezident Mirziyozyevning 2021-yil Buxoroda saylovchilar bilan uchrashuvdagi nutqidan.
2. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. T., 2003. 9-bet
3. Petrov, V. D. “Ibn Sina-velikiy sredneaziatskiy ucheniy ensiklopedist.” Abu Ali Ibn Sina. Kanon vrachebnoy nauki. Tashkent, 1981.
4. Avicenna and the Visionary Recital (en), 2016-04-19. “In this work a distinguished scholar of Islamic religion examines the mysticism and psychological thought of the great eleventh-century fors (dariy) philosopher and physician Avicenna (Ibn Sina), author of over a hundred works on theology, logic, medicine, and mathematics.”